

O‘ZBEKISTONDA OILA VA GENDER MUNOSABATLARINING TARTIBGA SOLINISHINING HUQUQIY-ME‘YORIY ASOSLARI

Maxsimova Madinabonu Maxtum qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
O‘zbek tili ta’limi fakulteti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası,
sotsiologiya yo‘nalishi 1-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11211828>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda oila va gender munosabatlarining tartibga solinishida huquqiy-me‘yoriy hujjatlar qanday ahamiyatga ega ekanligi, oila to‘g‘risida qonunlarda nimalar keltirilgani va oila kodeksi haqida gap yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Oila, kodeks konstitutsiya, qonunlar, moddanikoh, vazifalar, ijtimoiy institutlar.

LEGAL-NORMATIVE BASES OF REGULATION OF FAMILY AND GENDER RELATIONS IN UZBEKISTAN

Abstract. This article discusses the importance of legal and regulatory documents in the regulation of family-gender relations in Uzbekistan, what is included in the family laws and the family code.

Key words: Family, code, constitution, laws, articles, tasks, social institutions.

НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ СЕМЕЙНО-ГЕНДЕРНЫХ ОТНОШЕНИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В данной статье рассматривается значение нормативно-правовых документов в регулировании семейно-гендерных отношений в Узбекистане, что включено в семейное законодательство и Семейный кодекс.

Ключевые слова: Семья, кодекс, конституция, законы, статьи, задачи, социальные институты.

Oila-hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urfodatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo‘lib yetishishiga bevosita ta'sir ko‘rsatadigan tarbiya o‘chog‘i.

Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov

Kirish. Oila va gender sotsiologiyasi sotsiologiya fanining asosiy yo‘nalishlaridan bo‘lib, u nikoh va oilaning paydo bo‘lishi, rivojlanishi va vazifalarini bajarishini o‘rganadigan fan. Oila va gender sotsiologiyasi oilaga xos ijtimoiy munosabatlar turlari, oila va nikohning tarkibi, vazifalarini, oilani kichik ijtimoiy guruh va ijtimoiy institut sifatida xususiyatlarini, nikoh va ajralishlarni, oilani rejalashtirishga ta‘sir qiluvchi omillarni, oiladagi kelishmovchiliklar va ularni oldini olishni, oilaning boshqa ijtimoiy institutlar va ijtimoiy hayotning boshqa sohalari bilan o‘zaro munosabatini, nikoh – oila munosabatlarining tarixiy turlari va shakllarini, oila rivojlanishining tendensiyalarini o‘rganadi.

Oila shakllanishi, uning mustahkamligini ta‘minlanish – zamonaviy jamiyatlarning asosiy muammolaridan biridir. Oila, oilaviy va er-xotin munosabatlari falsafa, psixologiya, pedagogika,

sotsiologiya, demografiya va boshqa ko'plab fanlarning o'rganish obyekti bo'lib kelmoqda. Oila, uning shakllanishi va tanazzulga yuz tutishi kabi munosabat nafaqat uning sotsial institut sifatida kishilar turmush tarzini belgilab berishi, balki avlodning barkamolligi, millat va davlat sog'lomligi, shuningdek, doimiy o'sib boruvchi sotsial buyurtmadan kelib shakllangandir. Zero, oila barqarorligiga tahdidlarning o'sishini barcha tadqiqotchilar e'tirof etganlar.¹

Metod va materiallar: Oila haqida gap ketar ekan, avvalambor oila so'zining o'ziga ta'rif beramiz: Oila bu qon qarindoshchilik ya'ni nikoh orqali, yoki birga istiqomat qilish orqali bog'langan odamlardan iborat ijtimoiy guruhdir. Uning a'zolari ro'zgorining birligi, o'zaro yordami va ma'naviy mas'uliyati bilan bir-biriga bog'langan. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari — inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a'zolarining turmush sharoitini va bo'sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsa-da, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta'sirida o'zgarib boradi. Shunga muvofiq, har bir jamiyat o'zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o'rnatadi.

Oilaga sharqona, o'zbekona sodiqlik, o'tgan yetti pushtini bilish, ota-ona, qarindosh urug', keksalarga hurmat, yoshlarga mehribonlik, oila a'zolari, er-xotin va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarning mustahkamligi uning o'ziga xos xususiyatlaridir. Oilalar juda katta bo'lib jamoa asosida yashab kelganlar. O'zbek oilasi or-nomusli, kuchli oiladir. Shuning uchun u o'zining milliy qiyofasini yo'qotmagan holda butun oilaning sha'ni, obro'sini saqlash uchun mas'uliyat bilan ish tutadi. Er oila posboni, uning boquvchisi hisoblansa, xotin esa uning ko'rki, fayzi barokatidir.

Ularning umr gulshanlari qobil farzandlaridir. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o'zbek oilasining o'ziga xos xususiyatlarini e'tirof etib shunday deydi: "Oila-jamiyatning negizi.

Bizning davlatimizni ham katta bir oila deb tushunishimiz mumkin va lozim. Bunda o'zaro hurmat va qattiq tartib bo'lmasa, oilaning barcha a'zolari o'z burchlarini ado etmasa, bir-biriga nisbatan ezgulik bilan mehr-oqibat ko'rsatmasa, yaxshi va munosib tarzda yashash mumkin emas". Birinchi Prezidentimizning yuqorida aytib o'tgan gaplaridan ko'rishimiz mumkin-ki oilani mustahkamligini saqlashda har bir oila a'zolarining o'rni va tarbiyasi alohida ahamiyatga ega.

Qonunchiligimizga nazar solar ekanmiz oilaga katta e'tibor qaratilganligini, jumladan, uni qanday tashkil qilish, oila a'zolarining huquqlari va burchlari, umuman oilaviy hayotning barcha masalalariga urg'u berib o'tilganini ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XIV bobi oilaga bag'ishlanib, oilaning ijtimoiy maqomi aniq va ravshan belgilab qo'yilgani dunyo davlatlarining bosh qonunlarida uchraydigan kamyob voqealidir.

O'zbekiston hukumati oila masalalariga davlat siyosati darajasida bajarilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifa sifatida qaraydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasiga ko'ra, oila jamiyatning asosiy bo'g'ini hisoblanadi, u jamiyat hamda davlat tomonidan muhofazada bo'lish huquqiga ega.

Mulohaza va natijalar: Oilani jamiyatning ravnaq topilishida tutgan o'rni va ishtirokini yanada oshirish, oilalarning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy manfaatlarini va farovonligini yaxshilashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish hamda izchil ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 1998-yilni "Oila yili" deb e'lon qildi.

¹ Tagiyeva G, Husanova H. Oila va gender sotsiologiyasi.-Samarqand.: 2021

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi huzurida Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi. Oilaviy hayot masalalarini huquqiy tartibga solishga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi qabul qilingan.

Oila kodeksi bu oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga solib, oila a'zolari (ya'ni, er-xotinlar, ota-onalar, bolalar, shuningdek, farzandlikka oluvchilar va farzandlikka olinuvchilar va oilaning boshqa a'zolari) o'rtasidagi shaxsiy va mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi va mustahkamlovchi qonun hujjati. Huquqning alohida tarmog'i hisoblangan oila huquqining maxsus manbaidir. O'zbekiston Respublikasining amaldagi Oila kodeksi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1998-yil 30-apreldagi qarori bilan tasdiqlanib, ushbu yilning 1-sentabrdan amalga kiritildi. Kodeks 8 bo'lim, 30 bob, 238 moddadan iborat. Amaldagi Oila kodeksi bir qator oilaviy huquqiy munosabatlarni yangicha hal etgan.

Oila kodeksining **2-moddasiga** ko'ra, oilaviy munosabatlarda ayol va erkak teng huquqli bo'lib, oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustunligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi.²

Jamiyat va davlatning oila xususidagi g'amxo'rliги avvalombor, davlat yuritayotgan kuchli ijtimoiy siyosatda namoyon bo'lmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi 1994-yildan boshlab, har yili 15 may kunini Xalqaro Oila kuni sifatida nishonlashga qaror qildi.³

Xulosa. Oilaviy jarayonlarni tahlil qilish uchun zarur bo'lgan tushunchalarni tartibga solishga intilish, bu tushunchalar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash muhim bo'lib qolgan. "Oila-mafkuraviy tarbiyaning eng muhim ijtimoiy omillaridan biridir. Chunki oila-jamiyat negizi bo'lib, ko'p asrlik mustahkam ma'naviy tayanchlarga ega. Milliy mafkuramizga xos bo'lgan ilk tushunchalar, avvalo, oila muhitida singadi. Bu jarayon bobolar o'giti, ota ibratini, ona mehri orqali amalga oshadi. Oiladagi sog'lom muhit-sog'lom mafkurani shakllantirish manbaidir. Jamiyatda har bir oilaning mustahkamligi, farovonligi, o'zaro hurmat va ahillikni ta'minlash-milliy mafkurada ko'zda tutilgan maqsadlarni amalga oshirishda tayanch bo'ladi"⁴.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekistonda oila va gender munosabatlarining tartibga solinishida huquqiy-me'yoriy qonunlar ham katta rol o'ynaydi. Huquqiy me'yorlarga bo'ysunmaydigan oilalarda kelishmovchiliklar, ajralishlar ko'proq kelib chiqish holatlarini ko'rishimiz mumkin.

REFERENCES

1. Tagiyeva G, Husanova H. Oila va gender sotsiologiyasi.-Samarqand.: 2021.252-bet
2. O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi
3. Oila huquqi Otaxo'jayev F.M. Toshkent-2007. 247-bet
4. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.-T.: O'zbekiston, 2000.

² O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi 2-modda

³ Otaxo'jayev F.M. Oila huquqi. -Toshkent.: 2007. 5-bet.

⁴ Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -T.: O'zbekiston,